

**TA’LIM MAQSADILARI-O’QUV AXBOROTLARINING MAZMUNDORLINING MUHIM OMILI**

**Mushtariy Mamajonova  
ADPI 1-kurs magistranti**

**Annotatsiya:** Ushbu tezisdagi o’quv jarayonida axborot uzatish borasidagi o’qituvchi tomonidan egallanishi lozim bo’lgan qoidalar, o’qitish modelini tuzish, darsni tashkil etish borasida fikrlar yuritiladi.

**Kalit so’z:** Ta’lim texnologiyasi, demokratik, davlat, jamiyat, mustaqil fikr, mustaqil, ilg’or, fan-texnika.

Ilm-fan, texnika ishlab chiqarish hamda texnologiya sohalarida erishilayotgan yutuqlar uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida faoliyat yuritayotgan ta’lim muassasalari uchun yangi avlod darsliklarini yaratishni taqozo etmoqda. Bu kabi o’quv manbalarining yaratilishiga qo’yilayotgan talablardan eng muhimi – ularning mazmunida mavjud ilmiy bilimlar o’z ifodasini topibgina qolmay, shu bilan birga O’zbekiston Respublikasida ta’lim sohasida olib borilayotgan davlat siyosatining mohiyati ham ochib berish sanaladi.

O’zbekiston Respublikasida demokratik va huquqiy jamiyat barpo etilayotgan mavjud sharoitda yosh avlodning mustaqil va erkin fikrlay olishi ro’y berayotgan voqea-hodisalarga shaxsiy munosabtni bildirishga imkon beradi. Ijtimoiy borliqda kechayotgan o’zgarishlarga nisbatan shaxsiy nuqtai nazarining shakllanishi shaxs faolligini ko’rsatuvchi muhim jihatlardan biridir. qolaversa, mustaqil fikr egasi bo’lgan shaxs o’z imkoniyatlari, qobiliyatini erkin namoyon eta oladi. Muvaffaqiyatli ravishda olib borilayotgan ta’limiy islohotlarning ham asosiy maqsadi erkin, mustaqil fikriga ega barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iboratdir.

Bu xususida O’zbekiston Respublikasi Prezidenti quyidagilarni e’tirof etadi: «Amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi har bir fuqaroning shaxs sifatida shakllanishi uchun, o’z qobiliyatini, o’z talantini ishga solib hayotini yanada yaxshilashi, ma’nan boyitishi uchun barcha imkoniyatni yaratib berishdan iboratdir». XX asr kishilik jamiyati taraqqiyoti tarixidan fan va texnika sohasida yuz bergan inqiloblar davri sifatida joy oldi. Ilm-fan va texnika rivojining yuksak sur’ati moddiy ishlab chiqarish jarayonini nazariy (g’oyaviy) hamda amaliy jihatdan boyitib borish bilan birga ijtimoiy munosabatlarning yangicha mazmun kasb etishini ta’minladi.

Moddiy ishlab chiqarish sohalariga zamonaviy, ilg’or, yuksak texnologiyalarning tadbiq etilishi bir qator shartlar asosida kechadi, xususan, ilm-fan hamda texnikaning so’nggi yutuqlariga tayanish, yirik moliyaviy mablag’lar va yuksak darajadagi kasbiy mahoratga ega malakali mutaxassislarning mavjudligi bu boradagi yutuqlarni kafolatlaydi.

Moddiy ishlab chiqarish sohalarida ilg’or texnologiyalarni qo’llash shartlaridan biri - malakali mutaxassislarni tayyorlash, ularning kasbiy mahoratini doimiy ravishda oshirib borishga erishish ekanligidan ham anglanadiki, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayot bir-biri bilan uzviylik, aloqadorlik hamda yaxlitlik tamoyili asosida rivojlanib boradi. Jamiyat ijtimoiy hayotida yetakchi o’rin tutgan g’oya va qarashlar iqtisodiy ishlab chiqarish rivojiga o’z ta’sirini o’tkazsa, o’z navbatida, iqtisodiy o’sish aholining madaniy turmush tarzining yaxshilanishiga olib keladi.

Insoniyat sivilizatsiyasining quyi bosqichlarida shaxsni tarbiyalash, unga ta’lim berishga yo’naltirilgan faoliyat sodda, juda oddiy talablar asosida tashkil etilgan bo’lsa, bugungi kunga kelib ta’lim jarayonini tashkil etishga nisbatan o’ta qat’iy hamda murakkab talablar qo’yilmoqda. Bu borada o’quv axborotlarining mazmundorligi muhim ahamiyat

**“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.**

kasb etmoqda. Shu bois ijtimoiy taraqqiyot bilan uzviy aloqadorlikda rivojlanib borayotgan pedagogika fanining vazifalari doirasi kengayib bormoqda.

Tabiiy ravishda zamonaviy fan-texnika yutuqlaridan samarali va unumli foydalana olish vazifasi mazkur fan oldiga ham qo’yilgandir. Ayni vaqtda Respublika ijtimoiy hayotiga shiddatli tezlikda axborotlar oqimi kirib kelmoqda va keng ko’lamni qamrab olmoqda. Axborotlarni tezkor sur’atda qabul qilib olish, ularni tahlil etish, qayta ishlash, nazariy jihatdan umumlashtirish, xulosalash hamda o’quvchiga yetkazib berishni yo’lga qo’yish ta’lim tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Oqilona o’qitish modeli tuziladi, ular didaktik vazifalarni amalga oshirishga imkon beradi va o’qitish metodlari, tashkil etish shakllari, vositalari, pedagogik usullar tuplamidan iborat. Ko’rsatiladigan qurollar va pedagogik texnik o’quv materiallariga, o’quvchilarning shaxsiy qobiliyati va rivojlanganlik darajasiga uyg’un bg’lishi kerak. Shuningdek, ta’lim muassasasining modiy ba’zasi hisobga olinishi lozim.

Darslarning tuzilmasi o’ylab ko’riladi va quyidagicha amalga oshiriladi:

- ta’lim-tarbiya ishining ozirgi xolatini diagnostikalash;
- nazorat qilinadigan muhim ko’rsatkichlarni ajratib olish;
- pedagogik jarayon holatini joriy va yakuniy nazorat qilish;
- tashxislash va nazorat qilish natijalariga asosan teskari aloqa bog’lash usullari va vositalarini aniqlash;

- ta’lim texnologiyasini amalga oshirish uchun ehtimoldan holi bo’lmagan va unga xalaqit beruvchi omillar tashqi muhit va ularni bartaraf etish yo’llari o’ylab ko’riladi.

Ta’lim texnologiyasi asosida o’quv axborotlarining mazmundorligini ta’minlashda quyidagilarga alohida e’tibor qaratiladi:

- o’rganilayotgan mavzu bo’yicha maqsad, vazifalar bilan o’quvchilarni oldindan tanishtirish, muammo, topshiriqlarni, shuningdek, uy vazifalari, mustaqil ishlarni, ularni bajarish tartibi, paytini e’lon qilish, mavzuni to’liq o’zlashtirish bo’yicha ko’rsatmalar berish, etalon darajasida o’zlashtirish me’yorlarini aytib berish;

- o’quvchilarning faol, mustaqil faoliyatini rag’batlantirish, bolalar diqqatini bo’lim yoki mavzu mazmuniga tortish, uni qanday o’rgatish zarurligini aytib, bilishga qiziqish uyg’otish o’qish-o’rganishga havas, muammolarni bajarishga ehtiyoj uyg’otish. Emotsiyalar, tafakkur xodisalari bilimlarni o’quv holatlariga tadbiiq etish yo’llari orqali mavzu bo’yicha ma’lumotlar to’plash, to’plangan ma’lumotlar yuzasidan joriy nazoratni tashkil etish, mavzuni to’liq o’zlashtirishga oid o’zgartirish, qo’shimcha, tuzatishlarni belgilash;

- bo’lim yoki mavzu bo’yicha to’plangan bilimlarga ishlov berish. Ta’lim jarayoni stoxastik xarakterga ega. Unda kutilgan va kutilmagan, rejalashtirilgan, favqulodda va tasodifiy xodisalar ham uchrab turadi. Binobarin, o’rganilgan natijalarga asoslanib loyihaga yangi o’zgartirish, qo’shimcha, tuzatishlar kiritiladi, bolalarning etalon darajasiga qanchalik yakinlashganliklari ham aytib o’tiladi;

- bo’lim yoki mavzu bo’yicha umumiy xulosalar chiqarish, chiqarilgan xulosalarni murakkab o’quv xolatlariga tatbiq qilish. Oraliq nazorat natijalariga ko’ra mavzu yoki bo’lim bo’yicha axborot to’plash, to’plangan axborotlarga ishlov berish jarayonlarida o’quvchilar erishgan yutuqlarni tahlil qilish, o’quvchilarning bilim, malakasi, ijodiy faoliyat tajribasi, munosabatlaridagi kamchilaklarini ko’rsatish, sinfning har bir o’quvchisiga yakuniy nazoratgacha bajaradigan qo’shimcha topshiriqlar berish, bolalarni o’quv materiallarini yanada atroflicha etalon darajasida o’zlashtirishga rag’batlantirish;

- yakuniy nazoratning asosiy funktsiyasi bolalarning ma’lumot va ta’lim mazmuni elementlarini etalon darajasida o’zlashtirishlarini aniqlash, etalon darajasidan past

**“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.**

o‘zlashtirgan o‘quvchilarni ogohlantirish, qo‘shimcha topshiriqlar berish va hokazo.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Adizova T.M Psixokorreksiya —T.2015
2. Z.T.Nishanova Psixologik xizmat.-T 2015
3. M.M.Jalilovna. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim modelini amalga oshirish uchun tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalari. ijtimoiy fanlarda innovatsiya onlayn ilmiy jurnali, 4(2), (2024) 130-133.
4. S.G.Gellershteyn. “Osnovnie techeniya psixologi” 1990 [264b ].
5. E.F.Zeer. Kasblar psixologiyasi: o‘quv qo‘llanma, 4-nashr.
6. Komilova X Pedagogik trening asoslari O‘quv qo‘llanma. Toshkent: 2022.- 132-b.
7. Harmer J. The Practice of English Language Teaching. - London., 2001
8. Harmer, J. The Practice of English Language Teaching/ J. Harmer, Longman, 2002. 293 p.